



**QARSHI DAVLAT
TEXNIKA UNIVERSITETI**

INNOVATSION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY

Electronic Scientific and Practical Journal



2025 / 1



@QMI_Instituti



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225 - uy



www.kstu.uz
www.ojs.qmii.uz

INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

3-jild
1-son
may, 2025

May 2025
Volume 3
Number 1

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

THE INNOVATION ECONOMY
Electronic Scientific and Practical
Journal

INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.qmii.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi o'rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qarshi davlat texnika universiteti

Mas'ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Qarshi davlat texnika universiteti

Texnik muharrir:

F.F.Haqqulov, PhD

Qarshi davlat texnika universiteti

**Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda
jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.**

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi

225-uy

Tel.: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@qmii.uz

"Innovatsion iqtisodiyot" ilmiy - amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmatlar va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolaevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Serqiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidirov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shvchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullayevich - i.f.d., professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Samandarzoda Iskandar Hakim - i.f.d., i.f.d., professor (SH.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Giбадуллин Артур Артурович Национальный исследовательский университет Московский энергетический институт

Войнаш Сергей Александрович Казанский приволжский (федеральный) университет

Пуляева Валентина Николаевна Финансовый университет при Правительстве РФ

Морковкин Дмитрий Евгеньевич Финансовый университет при Правительстве РФ

Садриддинов Манучехр Исломиiddинович Международный университет туризма и предпринимательства Таджикистана, Душанбе

Перская Виктория Вадимовна директор Института исследований международных экономических отношений, Финансовый университет при Правительстве РФ

Молчанов Игорь Николаевич Профессор экономического факультета. Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова

Басова Мария Михайловна Заместитель декана факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Чупин Александр Леонидович Заместитель декана экономического факультета Российский университет дружбы народов имени П.Лумумбы
Незаймакин Валерий Николаевич Профессор кафедры финансов и кредита Российский государственный гуманитарный университет

Никонорова Алла Владимировна Доцент кафедры экономической теории Финансовый университет при Правительстве РФ

Дмитриева Ольга Александровна Доцент кафедры налогов и налогового администрирования факультета налогов, аудита и бизнес-анализа Финансовый университет при Правительстве РФ

Швец Юрий Юрьевич Лаборатория управления инновациями, Институт проблем управления Российской академии наук

Колосова Елена Валерьевна Лаборатория управления инновациями, Российский экономический университет имени Г.В. Плеханова

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyatov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Bozorov Orifjon Shodiyevich - t.f.n., dotsent

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Vaxabov Abduraxim Vasikovich - i.f.d., professor

Hakimov Obidjon Arzikulovich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo'raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg'unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo'jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Jalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

EKOLOGIK INNOVATSIYALAR VA ULARNING IQTISODIY BARQARQORLIKDAGI O'RNI	103
<i>Yormatov Ilmidin Toshmatovich</i>	
TABIYI RESURLAR SALOHİYATIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI	108
<i>Xamrayeva Sayyora Nasimovna, Xo'janova Gulshoda Otamurodovna</i>	
RAQOBATBARDOSH BOZORDA SAMARALI BRENDA YARATISHNING TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI	114
<i>Temirova Feruza Sagdullayevna</i>	
YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN YER SOLIG'I VOSITASIDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA ISHLAB CHIQRISH VA UNDA FOYDALANISHNI RAG'BATLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	119
<i>Sirojetdinov Shoxruxbek Bokijonovich</i>	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ISHLAB CHIQRISH SANOATINING DIVERSIFIKATSIYASI	123
<i>Muxsimova Dilafruz Xikmatullayevna</i>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAFAQA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	129
<i>Samiyeva Gulnoza Toxirovna</i>	
JUN ISHLAB CHIQRISH VA UNI DASTLABKI QAYTA ISHLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	138
<i>Ergashev G'ayrat Urolovich</i>	
MINTAQADA BANDLIK MUAMMOLARINI TADBIRKORLIK ORQALI BARTARAF ETISH YO'LLARI	142
<i>Ergasheva Nasiba Rahmatullayevna, Barotov Komiljon Farhod o'g'li</i>	
SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY YOSITASIGA TA'VIR ETUVCHI OMIYLLAR TAHLILI	149
<i>Mirzaev Za'far Abdalimovich</i>	
KICHIK VA O'RTA BIZNESNI KREDITLASH JARAYONIDA KREDITGA LAYOQATNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	157
<i>Karimova Aziza Maxomadrizoyevna</i>	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik	163
O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	164
<i>Baxridinova Shaxnozaxon Shukurullayevna</i>	
UY XO'JALIKLARI FAOLIGINI TA'MINLASH ASOSIDA AHOLI FAROVONLIGINI OSHIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI	172
<i>Ochilova Nargiza Akramovna, Safarova Zulfizar Zafar qizi</i>	
"KAYZEN" KONSEPSIYASINING KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA QO'LLANILISHI	177
<i>Eshmurodova Shaxnoza Shaxridinovna</i>	
KICHIK BIZNESNI INVESTISSION SALOHİYATINI BAHOlash AMALIYATI TAKOMILLASHTIRISH	182
<i>Ergashev Ilxomjon Ikromovich</i>	
Inson kapitali iqtisodiyoti	189
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA MEHNAT SALOHİYATINI OSHIRISH	190
<i>Xolmirzayev Ikromjon Odiljon o'g'li</i>	
MEHMONXONALARDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI	194
<i>Ochilova Nargiza Akramovna, Ochilov Dilshodbek Komil o'g'li</i>	
Menejment va marketing	199
MEVA-SABZAVOTCHILIK MAHSULOTLARI KOOPERATSIYASINING SAMARADORLIGINI BAHOlash	200
<i>Ergashev Rahmatulla Xidirovich</i>	
HUDUDIY BRENDA — TURIZM SANOATIDA MARKETING VOSITASI SIFATIDA	205
<i>Murodova Nargiza Utkirovna</i>	
MEHMONXONA XO'JALIGIDA RENTABELLIKNI OSHIRISH SAMARADORLIGI	210
<i>Berdiyev Jasur Qo'ldoshevich</i>	
Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit	214
INVESTISSION FAOLIKDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI	215

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI NAFAQA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI

Samiyeva Gulnoza Toxirovna

НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПЕНСИОННОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Самиева Гулноза Тохировна

DIRECTIONS FOR IMPROVEMENT OF THE PENSION SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Samieva Gulnoza Tokhirovna

Received: March 5, 2025 Revised: March 7, 2025 ■ Accepted: March 10, 2025 ■ Published Online: May 1, 2025

- **Annotatsiya.** Mazkur maqola O‘zbekiston Respublikasida nafaqa tizimini takomillashtirish mavzusiga bag‘ishlangan bo‘lib, uning asosiy mazmuni – O‘zbekistondagi pensiya va nafaqa islohotlari tahliliga qaratilgan. Fuqarolarga davlat yoki boshqa subyektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va odatda umrbod to‘lanadigan to‘lovlar, ya‘ni pensiya va nafaqalar ko‘rinishida bo‘lishi ushbu maqolada to‘liq aks ettirilgan. Maqolada aksariyat mamlakatlar tajribasi asosida o‘rganilgan pensionerlarning kutilayotgan umr ko‘rish davomiyligi uzayishi bilan bog‘liq holda mablag‘larni qat‘iy taqsimlash, pensiya tizimlarida taqchillik yuzaga kelishi bilan bog‘liq muammoni ilmiy asosda hal etishga bog‘liq faoliyat e‘tibor qaratilgan. Pensionerning turmush darajasini ta‘minlay oladigan minimal pensiyani joriy etish, mehnat faoliyati davomida to‘langan badallar va pensiya miqdori o‘rtasida bevosita bog‘liqlikni ta‘minlash, pensiya to‘lovlarini moliyalashtirish manbalarini tabaqalashtirish kabi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oluvchi pensiya tizimlarini isloh etishning ilmiy-konseptual asoslari takomillashtirilayotgani maqolada bayon etilgan. Shuningdek, aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar va boquvchisini yo‘qotganlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining ijtimoiy ta‘minotini yanada yaxshilash pensiya ta‘minoti tizimining muhim maqsadlaridan biri ekan, maqolada muallif qisman ushbu masalalarga to‘xtalgan.
- **Kalit so‘zlar:** pensiya, nafaqa, nafaqa ta‘minoti, aholining ijtimoiy himoyasi, ijtimoiy ta‘minot, pensiya va nafaqa miqdori
- **Аннотация.** Данная статья посвящена теме совершенствования пенсионной системы в Республике Узбекистан, и ее основное содержание сосредоточено на анализе пенсионной и льготной реформе в Узбекистане. В настоящей статье отражен тот факт, что выплаты, производимые гражданам государством или иными субъектами в установленных законом случаях, то есть в виде пенсий и пособий, являются регулярными и, как правило, пожизненными. В статье рассматриваются мероприятия, связанные с научным решением проблемы жесткого распределения средств и возникновения дефицита в пенсионных системах в связи с ростом продолжительности жизни пенсионеров, изученные на основе опыта большинства стран. В статье рассматривается совершенствование научных и концептуальных основ реформирования пенсионной системы, включающее такие направления, как введение минимального размера пенсии, способного

обеспечить уровень жизни пенсионера, обеспечение прямой связи между взносами, уплачиваемыми в период трудовой деятельности, и размером пенсии, а также стратификация источников финансирования пенсионных выплат. Также важной целью пенсионной системы является социальная защита нуждающихся слоев населения, в том числе пожилых людей, инвалидов, лиц, потерявших кормильца, а также усиление государственной поддержки и стимулирования, дальнейшее улучшение социальной защищенности других нуждающихся категорий населения, и автор частично затронул эти вопросы в статье.

- **Ключевые** слова: пенсия, пособие, пенсионное обеспечение, социальная защита населения, социальное обеспечение, размер пенсий и пособий
- **Abstract.** This article is devoted to the topic of improving the pension system in the Republic of Uzbekistan, and its main content is focused on the analysis of the pension and benefit reform in Uzbekistan. This article reflects the fact that payments made to citizens by the state or other entities in cases established by law, that is, in the form of pensions and benefits, are regular and, as a rule, lifelong. The article examines measures related to the scientific solution to the problem of rigid distribution of funds and the emergence of a deficit in pension systems due to the increase in life expectancy of pensioners, studied based on the experience of most countries. The article examines the improvement of the scientific and conceptual foundations of reforming the pension system, including such areas as the introduction of a minimum pension that can ensure the standard of living of a pensioner, ensuring a direct link between contributions paid during the period of work and the amount of the pension, as well as stratification of sources of financing pension payments. Another important goal of the pension system is the social protection of needy segments of the population, including the elderly, disabled people, people who have lost their breadwinner, as well as strengthening state support and incentives, further improving the social protection of other needy categories of the population, and the author partially touched upon these issues in the article.
- **Keywords:** pension, benefit, pension provision, social protection of the population, social security, the size of pensions and benefits

■ KIRISH

Har bir mamlakatning nafaqa islohoti ham albatta pensiya ta'minotiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Buning uchun qonun va boshqa huquqiy-meyoriy hujjatlar qabul qilinadi, ular orqali mehnat va ijtimoiy pensiyalar belgilanadi. Shunday qilib, umumiy ish stajida hisobga olinadigan mehnat va boshqa ijtimoiy foydali faoliyat bilan bog'liq holda pensiyalar: qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish, ish staji uchun tayinlanadi. Agar biron sababga ko'ra fuqarolar mehnat yoki boshqa ijtimoiy foydali faoliyat bilan bog'liq holda pensiya olish huquqiga ega bo'lmasa, ular ijtimoiy pensiya bilan ta'minlanadi. Bunday pensiya tegishli hollarda mehnat pensiyasi o'rniga tayinlanishi mumkin.

O'zbekistonda aholini, shu jumladan uning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish va manzilli qo'llab-quvvatlashning kompleks mexanizmi yaratilgan bo'lib, uni amalga oshirish quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

- nogironlar, yetimlar va yolg'iz keksa fuqarolarni, tashqaridan qarashga muhtoj fuqarolarni qamrab

oladigan ijtimoiy ta'minot tizimi;

- asosan xodimlarni qamrab oladigan ijtimoiy sug'urta;

- kam ta'minlangan oilalar va alohida ehtiyojmand fuqarolarga ijtimoiy yordam ko'rsatish tizimi;

- aholining ayrim toifalari uchun ijtimoiy nafaqalar tizimi;

- pensiya tizimi va pensiya tizimi bilan qamrab olinmagan keksa fuqarolarga nafaqalar berish tizimi;

- Ishsizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ularga ishga joylashishda yordam berish tizimi [1].

■ ADABIYOTLAR TAHLILI

G'arb davlatlarida avj olgan sanoatlashish jarayoni mashinalashgan fabrika va zavodlarning paydo bo'lishi, mehnatning murakkablashuvi, o'ta holdan toydiruvchi tezlik, ish kunining chegaralanmaganligi, sog'liq uchun zararli ishlab chiqarish sohasida ayollar va bolalar mehnatidan foydalanish kabi salbiy holatlarni keltirib chiqardi. Natijada, ijtimoiy himoyaning tizimlashtirilgan shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Bir vaqtning o'zida muhtojlik va

uni yuzaga keltiruvchi omillar yuzaga keldi. T.Maltus (1766-1834) “... dunyoga kelgan insonni agarda ota-onasi boqa olmasa... va jamiyat uning mehnatiga ehtiyoj sezmasa, demak, mantiqan u yer yuzida ortiqchadir. Tabiat unga chetlanishni buyuradi va buni amalga oshirishni kechiktirmaydi”, – deb ta’kidlaydi [2]. Uningcha, davlat tomonidan ko’rsatilayotgan moddiy yordam aholi sonini ko’payishiga olib keladi. Natijada, oziq-ovqatga talab kuchayib davlat xazinasi uchun xavf tug’iladi va kambag’alilikni keltirib chiqaradi. Keyinchalik G.Spenser (1820-1903) ushbu g’oyani rivojlantirib, “Tug’ilishning oshib borishi yashash uchun kurash jarayonini murakkablashtirib yuboradi. Bu kurashda faqat kuchlilar g’olib chiqadilar. Aksincha, yetarlicha faollikka ega bo’lmaganlar tabiiy tarzda siqib chiqariladi va ular o’limga mahkumdirlar”,– degan fikrni bildiradi. [3] U ojiz qatlamlarni davlat tomonidan ijtimoiy himoyalash tabiiy tanlov qonuniyatlarini buzib aqlan, jismonan qobiliyatsiz kishilar sonini ko’paytiradi va jamiyat uchun foydali sog’lom insonlarning yashash uchun kurash jarayonini murakkablashtiradi, deb hisoblaydi.

Keyinchalik qator olimlar T.Maltus va G.Spenserning ijtimoiy himoyaga bergan baholarini inkor etadilar. Jumladan, A.Smit “Xalqlarning boyligi ikki muhim shart-sharoit, birinchidan, tegishli xalq o’z mehnatini qo’llay olishda qanchalik mohir va topqirligi, ikkinchidan, ishlab chiqarishda band bo’lganlar va mehnat qobiliyatiga ega bo’lmaganlar sonining mutanosibligi bilan belgilanadi. Sivilizatsiyali xalqlarda ko’pchilik bevosita ishlab chiqarishda band bo’lmasa-da, umumdavlat farovonligi hisobidan yaxshi turmush kechiradilar”, – deydi [4]. Darhaqiqat, ijtimoiy himoyaga muhoj

qatlamlarning haq-huquqlarini himoyalash, ularga munosib turmush tarzini kafolatlash zamonaviy jamiyatlar taraqqiyotining ustuvor yo’nalishlaridan bo’lib, moddiy ne’matlarning oqilona taqsimoti turli qatlamlarning mavjud ahvolidan qat’iy nazar davlat tomonidan ijtimoiy muhofazalanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy himoyaning bosh mezonlari, tamoyillari, maqsad va vazifalarining globallashuvi natijasida 1935 yilda AQShda chop etilgan “Himoya to’g’risidagi hujjat” (Security Act) da ijtimoiy muhofaza atamasi ilk bor qo’llanildi. 1938 yilda esa, Yangi Zelandiyada chiqarilgan “Ijtimoiy muhofaza to’g’risidagi hujjat” (Social Security Act) da ijtimoiy muhofaza tegishli sohaga xos atama sifatida ta’riflandi.

Keyinchalik ijtimoiy himoya tushunchasiga yangicha yondashuvni U. Beveridj 1942 yil o’zining “Erkin jamiyatda to’laqonli bandlik» deb nomlanuvchi Angliya parlamentidagi ma’ruzasida keltirib, ijtimoiy himoyaning zamonaviy mohiyatini ochib berish bilan birga uni amalga oshirishning mas’ul subektlaridan biri davlat ekanligini asoslab beradi [5]. Uningcha, ijtimoiy muhofaza tizimi davlat miqyosida aholining barcha qatlamlari uchun yalpi holda amalga oshirilishi shart. Ingliz hukumati U.Beveridjning taklif va tavsiyalaridan unumli foydalanib, 1944-1948 yillar mobaynida jahonda birinchilardan bo’lib yalpi ijtimoiy muhofaza tizimining qonunchilik asoslarini yaratdi.

Ijtimoiy himoya nazariyasini yaratishdagi yirik ishlardan birini olimlardan L.Ryustov, V.Ryopke, F.Byole, V.Oyken va G.Grossman-Dertlar XX asrning 30-yillari oxirida amalga oshiradilar. Ular “Ijtimoiy bozor xo’jaligi” nazariyasini ishlab chiqib, jamiyat iqtisodiy hayotidagi yutuqlarga fuqarolarning ijtimoiy



1-rasm. Pensiya turlari


himoyasini ta'minlaydigan erkin bozor tuzilmasini shakllantirish orqali erishish mumkinligini ta'kidlab o'tadilar.

Mahalliy o'zbek olimlaridan Q.Abduraxmonov [6], A.Vaxabov [7] ushbu mavzu yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan. Ularning asarlarida

ijtimoiy ta'minot, ijtimoiy siyosat, pensiya masalalari o'z aksini topgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya



2-rasm. Nafaqa turlari

va deduksiya, statistik va ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi.

ASOSIY TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab kam ta'minlangan uy xo'jaliklari uchun ular oladigan nafaqa va nafaqalar ularning iqtisodiy ahvolidan murakkabligiga mos kelmaydi - nafaqa va nafaqalar miqdorining kam ta'minlangan uy xo'jaliklari daromadlariga nisbati past (20% dan kam).

Avvalo nafaqa va pensiyaning farqini ajratib olishimiz kerak bo'ladi. Quyidagi 1-rasmda pensiya turlari ifodalangan.

Pensiya (lot. "pensio" – to'lov) – fuqarolarga davlat yoki boshqa subektlar tomonidan qonunda belgilangan hollarda muntazam va odatda umrbod to'lanadigan to'lovlardir. Pensiya - bu qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ayrim toifadagi shaxslarga ijtimoiy daromadlar va ushbu maqsadlar uchun mo'ljallangan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladigan muntazam naqd pul to'lovi. Pensiya bilan ta'minlash uchun quyidagilar asos bo'ladi: tegishli pensiya yoshiga va ish stajiga erishish;

nogironlikning boshlanishi; boquvchisini yo'qotish; oila a'zolari ichida nogiron shaxslarning mavjudligi. Nafaqalar - yo'qotilgan daromadlarni qoplash yoki qo'shimcha moddiy yordam ko'rsatish uchun har oyda, davriy ravishda yoki qonunda belgilangan hollarda fuqarolarga beriladigan naqd pul to'lovlari. Doimiy va asosiy tirikchilik manbai bo'lgan pensiyalardan farqli o'laroq, nafaqalar odatda yo'qotilgan daromadlarni vaqtincha o'rnini bosadigan yoki asosiy tirikchilik manbaiga (daromad yoki pensiya) qo'shimcha sifatida xizmat qiladigan yordamdur. Hozirda pensiya ta'minotini takomillashtirish dunyodagi eng global muammolardan biri hisoblanadi. Pensiya tizimlarini takomillashtirish to'g'risidagi xalqaro darajadagi muhokamalar Jahon banki tomonidan 1994 yilda nashr etilgan, aholining keksayib borishi bilan bog'liq pensiya inqiroziga bag'ishlangan hisobotdan boshlangan. Hisobotda ta'kidlanishicha, jahon mamlakatlarida demografik vaziyatning keskinlashuvi, jumladan, aholi yosh tarkibining jiddiy o'zgarishi, ya'ni aholi yosh tarkibida keksa yoshdagi fuqarolar ulushining ortib borishi, aholining o'rtacha umr ko'rish davomiyligining oshib borishi kabilar pensiya ta'minoti tizimi xarajatlarning ko'payishiga olib kelmoqda. Ma'lumotlariga

ko'ra, dunyo bo'yicha 2017 yilda 60 va undan yuqori yoshdagilar 962 mln. kishini tashkil etib, 1980 yilga nisbatan 152 foizga ortgan. Mazkur ko'rsatkich 2030 yilga borib, 1,4 mlrd., 2050 yilga kelib esa 2,1 mlrd. kishiga yetishi, ya'ni 2017 yilga nisbatan 2 baravar ko'payishi prognoz qilingan [8].

O'zbekiston Respublikasida nafaqalar tizimi mehnatga layoqatsiz va kam ta'minlangan fuqarolarni turmush darajasini ta'minlashga va qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va tashkiliy tavsifga ega bo'lgan qator chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirilishini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi davlat pensiya ta'minoti tizimida umumqabul qilingan pensiya sug'urtasi tamoyillarini kiritilishiga bog'liq bo'lgan modernizatsiyalash jarayonlari amalga oshirilgan. Oxirgi yillarda sug'urta badallari ushlanadigan yagona ish haqi bazasi shakllantirilgan, pensiyani hisoblab chiqarish uchun hisobga olinadigan ish haqini zamonaviylashtirish, ya'ni ilgari olingan oylik ish haqilarini bugungi kundagi miqdorlarini aniqlash mexanizmi joriy etilgan, hisoblangan sug'urta badallarini yakka tartibdagi hisobini yuritish tizimi amaliyotga tatbiq etilgan pensiya tizimining moliyaviy muvozanati quyidagi asosiy 4 ta omilga bog'liq:

- demografik holat;
- iqtisodiy ahvol;
- ijtimoiy va mehnat munosabatlari
- pensiya sug'urtasining moliyaviy boshqaruv usullari va mexanizmlari.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida aholining jadal ravishda keksayib borishi iqtisodiyotga moliyaviy bosimining kuchayishiga olib keldi. Shu sababdan jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari hisobga oluvchi pensiya ta'minotining optimal modelini shakllantirish ko'pchilik mamlakatlarning muhim vazifasi hisoblanadi.

Shunga ko'ra, hozirgi vaqtda pensiya yoshini oshirish, pensiya imtiyozlarini qisman bekor qilishi, kelajakda pensiyani to'lashga mo'ljallangan mablag'larni investitsiyalash elementlarini kirituvchi pensiya islohotlari amalga oshirilmoqda 2018 yilda Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari 24,0 trln. so'mni, xarajatlari esa 20,5 trln. so'mni, jamg'arma hisobidagi mablag'lar qoldig'i esa 7,0 trln. so'mni tashkil

qilgan. Pensiya jamg'armasi xarajatlari tarkibida asosiy ulushni ish beruvchilarning mehnat haqi fondidan to'lanadigan yagona ijtimoiy to'lov (jami daromadlarning 57,8 foizi), ishlovchilarning sug'urta badali to'lovi (jami daromadlarning 21,6 foizi), korxonalar va tashkilotlar tomonidan tovar va xizmatlar realizatsiyasidan tushumlar (jami daromadlarning 11,6 foizi), yagona soliq to'lovi tushumlaridan Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ajratmalar (jami daromadlarning 6,2 foizi) egallaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 29 iyundagi "O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi to'g'risida"gi PF-5468-son Farmoniga muvofiq 2019 yil 1 yanvaridan boshlab, fuqarolarning mehnatga haq to'lash turidagi daromadlaridan budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ushlab qolinadigan sug'urta badallari bekor qilinadi. Pensiya tizimining barqarorligini ta'minlash maqsadida budjet tashkilotlari va davlat korxonalari, ustav jamg'armasi (kapitali)da davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq miqdorda bo'lgan yuridik shaxslar, ustav jamg'armasi (kapitali)ning 50 foizi va undan ko'proq miqdori davlat ulushi 50 foiz va undan ko'proq bo'lgan yuridik shaxsga tegishli yuridik shaxslar hamda ularning tarkibiy tuzilmalari uchun yagona ijtimoiy to'lovni 25 foiz miqdorida belgilash, shuningdek, boshqa yuridik shaxslar uchun ushbu to'lov stavkasini 15 foizdan 12 foizgacha pasaytirish ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, davlat maqsadli jamg'armalariga yuridik shaxslarning oboroti (tushumi)dan undiriladigan majburiy ajratmalarni ham bekor qilish nazarda tutilgan. Budjet-soliq tizimidagi mazkur o'zgartirishlar 2019 yilda Pensiya jamg'armasi tushumlarini 8 trln. so'mga kamayishiga olib keladi. Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga Jahon bankining texnik ko'magi ostida PROST (Pension Reform Options Simulation Toolkit) modeli yordamida pensiya ta'minoti tizimining istiqboldagi prognozlari ishlab chiqildi.

Mazkur prognoz natijalariga ko'ra, Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining yaqin o'n yillikdagi defisiti YAIMga nisbatan 3-4 foizni tashkil etilishi bashorat qilingan bo'lib,

ushbu ko'rsatkich 2050 yilga borib YAIMga nisbatan 10 foizga yetishi prognoz qilingan. Bunda, soliq siyosatini takomillashtirish doirasida amalga oshirilgan o'zgartirishlar, ya'ni Pensiya jamg'armasiga tushumlar qisqartirilmagan taqdirda 2035 yilga qadar profisitga erishish holati prognozlashtirilgan.

Pensiyaga chiqish uchun talab etiladigan minimal mehnat stajining past darajada belgilanganligi, amalda fuqarolarning davlat ijtimoiy sug'urtasidagi ishtirokiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'kidlash joizki, 2016 yil 1 iyuldan boshlab, pensiya tayinlash uchun talab etiladigan eng kam mehnat faoliyati

1-jadval.

Fuqarolarning ayrim toifalari va guruhlariga beriladigan ijtimoiy nafaqalarning guruhlanishi, miqdori va moliyalash

NAFAQA TURI	NAFAQA MIQDORI	MANBA
Yoshga doir nafaqalar	"Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Prezident farmonlari bilan belgilangan miqdorlarda	budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari
Nogironlik bo'yicha nafaqalar	"Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Prezident farmonlari bilan belgilangan miqdorlarda	budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari
Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi	oilaning mehnatga layoqatli bo'lmagan a'zolari soniga ko'ra, belgilangan nafaqaning 100, 75, 50foizi miqdorida	budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari
Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi	Ish stajiga ko'ra ish haqining 80, 60 foizi miqdorida, shuningdek, qonunchilikda belgilangan boshqa hollarda ish haqining 100, 80, 60 foizi	Budjet mablag'lari, xo'jalik yurituvchi subektlarning shaxsiy mablag'lari
Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa	mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha davr uchun - ish haqining 100 foizi	Budjet mablag'lari, xo'jalik yurituvchi subektlarning shaxsiy mablag'lari
Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa	eng kam oylik ish haqining ikki baravari	budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari
Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa	bir kunlik ish haqi miqdorida	
Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa	eng kam oylik ish haqining to'rt barabari	budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari
Ishsizlik bo'yicha nafaqa	oldingi ish joyidagi oxirgi bir yilgi o'rtacha ish haqiga foiz nisbatida (yoki eng kam ish haqi miqdoriga foiz nisbatida)	Davlat bandlikka ko'maklashish jamg'armasining mablag'lari
Ish beruvchi tomonidan to'lanadigan nafaqa	bir yillik o'rtacha ish haqidan kam bo'lmagan miqdorda	xo'jalik yurituvchi subektlarning shaxsiy mablag'lari



3-rasm. O'zbekistonda yoshga doir pensiya tayinlashda ish stajiga nisbatan o'rtacha ish haqi bog'liqligi

davri 5 yildan 7 yilga oshirildi. Bu esa budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining bir yilda 5,3 mlrd. so'mga tejalishini ta'minlab, xarajatlarni qisqartirish imkonini berdi. Ma'lumki, budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larining sezilarli qismi imtiyozli pensiyalarni moliyalashtirishga sarflanadi.

2017 yilda imtiyozli shartlarda tayinlangan pensiyalar ulushi 592,4 ming kishini yoki jami tayinlangan pensiyalarning 19,5 foizini, jumladan, yoshga doir pensiyalarning 23,7 foizini tashkil etdi. Yiliga o'rta hisobda 39,8 ming nafar fuqaroga imtiyozli shartlarda pensiyalar tayinlanadi. Shu bilan birga, imtiyozli pensiyalarning o'rtacha miqdori yoshga doir pensiyalarning o'rtacha miqdoridan yuqoridir. Bunday holat fuqarolarga imtiyozli shartlarda pensiya tayinlash tartibini qayta ko'rib chiqishni, pensiya tizimidagi samarasiz imtiyozlarni optimallashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Jahon mamlakatlarida pensiya ta'minotini isloh qilishdagi eng muhim ko'rsatkichlardan biri pensiya yoshi hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, dunyoda o'rtacha pensiya yoshi erkaklar va ayollar uchun 62 yoshni, O'zbekistonda esa bu ko'rsatkich 57,5 yoshni (erkaklar uchun 60 yoshni, ayollar uchun 55 yoshni) tashkil etadi. Yoshga doir pensiyaga chiqish huquqi O'zbekiston bilan qo'shni davlatlar, jumladan, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikistonda erkaklar uchun 63 yosh, ayollar uchun 58 yoshni tashkil etsa, Turkmanistonda

erkaklar uchun 62 yoshni, ayollar uchun 57 yoshni tashkil etadi. Hozirda Qozog'istonda ayollarning pensiya yoshini 63 yoshga yetkazish maqsadida bosqichma-bosqich ravishda har yili 6 oyga uzaytirib borilmoqda.

O'zbekistonda ish stajiga nisbatan talabning juda qisqa muddat – 7 yildan iborat qilib belgilanishi fuqarolarning davlat ijtimoiy sug'urtasidagi ishtirokiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ishlovchilarning ijtimoiy sug'urtadagi uzoq muddat va uzluksiz ishtirokini rag'batlantirishdagi zaif mexanizmlar, ularni sug'urta badallarini to'lamalikning yangi usullarini qidirishga majbur etadi. Qayd etilgan holatlarning barchasi pensiya ta'minoti sohasidagi asosiy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shuni alohida qayd etish lozimki, O'zbekistonda amaldagi davlat pensiya ta'minoti tizimi zamon talablariga javob bera olishi, jumladan, fuqarolarga keksaygan hamda mehnat qilish qobiliyatlarini yo'qotgan chog'ida yuqori darajadagi maqbul shart-sharoitlarni yaratish zarur. Shu nuqtai nazardan o'zini o'zi ish bilan band qilgan aholi toifasi uchun, ya'ni chet elda yollangan holda ishlovchi shaxslar, dehqon xo'jaligi va uning a'zolari, 4 sotixdan kam bo'lmagan tomorqa yerida band bo'lgan yoki ushbu tomorqada qoramol yoxud 50 boshdan kam bo'lmagan parranda parvarishlayotgan jismoniy shaxslar uchun pensiya ta'minoti tizimida ishtirok etish mexanizmlari joriy etildi [8].

2-jadval.

Nogironlik boshlangan paytga qadar talab qilinadigan ish staji (yil)

YOSH	ISH STAJI (YIL HISOBIDA)
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshga qadar	3
26 yoshdan 31 yoshga qadar	5
31 yoshdan 36 yoshga qadar	7
36 yoshdan 41 yoshga qadar	9
41 yoshdan 46 yoshga qadar	11
46 yoshdan 51 yoshga qadar	14
51 yoshdan 56 yoshga qadar	17
56 yosh va undan oshganda	20



4-rasm. O'zbekistonda pensiya miqdorining shakllantirish tartibi

Fuqarolarga pensiya tayinlash uchun yetishmayotgan har bir oyi uchun bir martalik sug'urta badallarini to'lash asosida (5 yildan ortiq bo'lmagan davr uchun) ish stajini sotib olish amaliyotini joriy etilishi ularning munosib miqdordagi pensiya olishlari hamda Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining qo'shimcha tushumlarining shakllanishiga olib keladi.

Ushbu amaliyot Rossiya Federasiyasi, Ozarbayjon, Estoniya va Polsha Respublikalarida joriy etilgan bo'lib, fuqarolarning munosib miqdordagi pensiya olishlarini ta'minlab kelmoqda. Shu maqsadda, O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimida fuqarolarning ixtiyoriy ishtirokini rag'batlantirish maqsadida pensiya yoshiga yetgan, ammo zarur ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga davlat pensiyalarini hisoblashda yetishmayotgan ish stajini birinchi va ikkinchi yillari uchun minimal ish haqining 2 baravari miqdorida hamda uchinchi, to'rtinchi va beshinchi yillar uchun minimal ish haqining 1,5 baravarida sotib olish amaliyotining joriy etilishi maqsadga muvofiq.

Pensiya tayinlash yoshiga yetib, talab etilgan ish stajiga (erkaklar uchun – 25 yil, ayollar uchun – 20 yil) ega bo'lmagan, ya'ni talab etilgan ish stajiga o'rtacha 2,3 yil mehnat davri etmayotgan fuqarolar soni 11,7 ming kishini tashkil etadi. Bunda, mazkur mexanizm amaliyotga to'liq joriy etilgan taqdirda, pensiya tayinlash huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga to'liq miqdordagi pensiyalar tayinlanib, o'rtacha 120-130 ming so'mga pensiyalar miqdori oshishi hamda Pensiya jamg'armasiga yillik hisobda 112 mlrd. so'm miqdoridagi tushum va pensiya miqdorlari oshishi hisobiga 16,1 mlrd. so'm qo'shimcha xarajatlarni keltirishini inobatga olib, uning amaliyotga tatbiq etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi [9]. 2022 yil 1 sentabrdan boshlab barcha yuridik shaxslarda oxirgi 6 oy davomida uzluksiz ish stajiga ega bo'lgan ayollarga (budjet tashkilotlari bundan mustasno) oylik iste'mol xarajatlarining eng kam miqdoridan kelib chiqqan holda, davlat budjeti mablag'lari hisobidan tug'ruq va homiladorlik nafaqalari to'lanishi belgilandi, davlat ijtimoiy sug'urtasi

bo'yicha nafaqalarni to'lash "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimi orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

2022 yil 1 iyuldan esa davlat pensiyalarini tayinlashda fuqarolardan mehnat staji, ish haqi, oliy ta'lim muassasalaridagi o'qish hamda harbiy xizmat davri to'g'risidagi hujjatlarni talab qilish bekor qilindi. Bunda, pensiyaga chiqish huquqi paydo bo'lgan chog'ida ishlamaydigan fuqarolarga o'zlarining mehnat daftarchalaridagi mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotlarni Bandlikka ko'maklashish markazlariga murojaat qilish orqali "Yagona mehnat milliy tizimi" idoralararo dasturiy-apparat kompleksi (YamMT IDAK)ga kiritish xizmati joriy etildi.

Davlat pensiyalarini tayinlash YamMT IDAKga kiritilgan elektron ma'lumotlar asosida amalga oshirilmoqda. Bunda, mehnat staji, ish haqi, oliy ta'lim muassasalaridagi o'qish hamda harbiy xizmat davri to'g'risidagi hujjatlar Pensiya jamg'armasi tomonidan YamMT IDAKdan foydalangan holda elektron ma'lumotlar almashinuvi asosida olinmoqda hamda davlat pensiyalarini tayinlash uchun fuqarolardan faqat pasport yoki identifikatsiya ID-kartasi talab etilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi kunda aksariyat mamlakatlarda pensionerlarning kutilayotgan umr ko'rish davomiyligining uzayishi bilan bog'liq holda mablag'larni qat'iy taqsimlashning "avlodlar birdamligi" tamoyillariga asoslangan pensiya tizimlarida taqchillik yuzaga kelishi bilan bog'liq muammoni ilmiy asosda hal etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Pensionerning turmush darajasini ta'minlay oladigan minimal pensiyani joriy etish, mehnat faoliyati davomida to'langan badallar va pensiya miqdori o'rtasida bevosita bog'liqlikni ta'minlash, pensiya to'lovlarini moliyalashtirish manbalarini tabaqalashtirish

kabi yo'nalishlarni o'z ichiga oluvchi pensiya tizimlarini isloh etishning ilmiy-konseptual asoslari takomillashtirilmogda.

O'zbekistonda mamlakatni rivojlantirishga bag'ishlangan dastur va strategiyalarda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda "aholining ehtiyojmand qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish, jumladan, keksalar, imkoniyati cheklangan shaxslar va boquvchisini yo'qotganlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, aholining boshqa ehtiyojmand toifalarining ijtimoiy ta'minotini yanada yaxshilash" pensiya ta'minoti tizimining muhim maqsadlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida nafaqalarni to'lash Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi, Pensiya jamg'armasi va boshqa budjetdan tashqari jamg'armalar mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Ishlayotgan fuqarolarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish joyidagi ijtimoiy sug'urta mablag'lari hisobidan to'lanadi. Kelajakda rivojlangan davlatlar tajribasini qo'llash orqali yurtimizda ham nafaqa tizimini takomillashtirish masalalariga doir ilmiy-tadqiqot ishlari ko'lamini kengaytirish zarur deb o'ylayman.

Muallif haqida/ Сведения об авторе / Author details

1. Samiyeva Gulnoza Toxirovna - Qarshi davlat texnika universiteti "Innovatsion iqtisodiyot" kafedrasida dotsenti, i.f.f.d. (PhD) / Самиева Гулноза Тохировна - Каршинский государственный технический университет, доцент кафедры «Инновационная

экономика», PhD / Samieva Gulnoza Tokhirovna - Karshi State Technical University, Associate Professor of the Department of Innovative Economics, PhD

► samiyevagulnoza@gmail.com

■ <https://orcid.org/0009-0003-3192-3887>

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Юсупов Б. Становление и развитие экономической науки. – Бишкек: Учкун, 1999. – 62 с.
- [2]. Барулин В. Социальная философия. – М.: Fair-Press, 1999. – 181 стр;
- [3]. Spenser N. The evolution of society. – Chicago, 1967. – R. 5.
- [4]. Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народа / Классика экономической мысли. – М.: ЭКСМО-ПРЕСС, 2000. – 77 с.
- [5]. Ли Е. Совершенствование системы социального обеспечения в России в период перехода к рыночной экономике: Автореф. дис. ...канд. соc. наук. – М.: 1997. <http://humanities.ru>
- [6]. Abdurahmonov Q.X., Abduramanov X.X. Aholi turmush tarzi va daromadlari. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2011 – 226 bet
- [7]. A.Vaxabov. Ijtimoiy ish va ijtimoiy ta'minotga kirish. T. "Iqtisod-moliya", 2018 World Bank Policy Research Report: Averting the old Age Crisis. Oxford: Oxford University Press, 1994. – 402 p
- [8]. "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom"
- [9]. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2019 yil 11 fevraldagi DS/30-01-32-146/1017-sonli ma'lumotnomasi
- [10]. S.Xamrayeva, G.Samiyeva. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. – Qarshi, 2022